

**O'ZBEKISTONDA DAVLAT XIZMATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI****Qurbonov Zuhridin Husniddinovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti magistranti

[zuhridinqurbonov420@gmail.com](mailto:zuhridinqurbonov420@gmail.com)<https://doi.org/10.5281/zenodo.11422728>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada O'zbekistonda istiqlol yillari va undan keyingi davrda davlat xizmatini isloh etishga doir amalga oshirilgan islohotlar va bugungi kundagi amaliy rejalarning ilmiy-nazariy, huquqiy bayoni yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat xizmati, meritokratiya, davla fuqarolik xizmati, siyosiy xizmat.

**STAGES OF DEVELOPMENT OF PUBLIC SERVICE IN UZBEKISTAN**

*Abstract.* In this article, the scientific-theoretical and legal description of the reforms implemented in Uzbekistan during the years of independence and the subsequent period and practical plans for the reform of the public service is covered.

**Key words:** public service, meritocracy, public civil service, political service.

**ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ В УЗБЕКИСТАНЕ**

*Аннотация.* В данной статье дано научное, теоретическое и правовое описание реформ, реализованных в Узбекистане в годы независимости и в последующий период, а также текущие практические планы.

**Ключевые слова:** государственная служба, меритократия, государственная гражданская служба, политическая служба.

**KIRISH**

Bilamizki, har bir mustaqillikka erishgan davlatning birinchi navbatda amalga oshiradigan ishi boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish, davlat xizmatchilari vazifalarini belgilash va boshqaruv tartiblarini zamon ruhiga moslashtirishdan iborat bo'ladi. Chunki, davlat boshqaruvi tizimli yo'lga qo'yilgan davlatda islohotlarni amalga oshirish birmuncha osonlashadi. Mamlakatimizning istiqlol yillaridagi tarixi yuqoridagi fikrlarimizning yaqqol isboti bo'la oladi. O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab Sobiq ittifoqdan ajralib chiqqan mustaqil davlatlar negizida professional davlat xizmati tashkil topa boshladi. Ushbu xizmatdagi davlat xizmatchilarining aksariyat ko'pchiligi vataniga sodiq, kommunistik mafkura ta'siridan yiroq tafakkurga ega xizmatchilar ekanligi davlatlarning keyingi taraqqiyotida yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, O'zbekistondagi mavjud ahvol mana shuning yaqqol isbotidir. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, milliy davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, uni vatanparvar, malakali, zamonaviy fikrlovchi kadrlar bilan ta'minlash eng

dolzarb masalaga aylandi. Chunki, mustaqillikkacha bo‘lgan davrda davlat boshqaruvi sovet mafkurasi asosida qurilgan, uning tarkibi esa kommunistik g‘oyalarga singdirilgan, totalitar rejim talablariga moslashgan kadrlardan iborat edi<sup>1</sup>. Mamlakatimizdagi davlat xizmatida amalga oshirib kelingan islohotlarning salmog‘i va bugungi kunda amalga oshirilayotgan ishlarning samarasini o‘ziga xos usulda tekshirishning birdan-bir yo‘li - davlat xizmatida boshlangan va davom etib kelayotgan ishlarni tizimlashtirgan holda o‘rganish va tadqiq etishdir. Bu borada mamlakatimizda tadqiqot olib borgan ko‘pgina olimlarning ishlarini misol tariqasida iqtibos qilib keltirish mumkin. Xususan, bu borada huquqshunos X.T. Azizov mustaqillik yillarida davlat xizmatining taraqqiy topish jarayonlarini uch bosqichga bo‘lib tadqiq etgan.

**METODOLOGIYA:** Olib borilgan tadqiqotlar jarayonida bir qancha ijtimoiy usullar, ijtimoiy-huquqiy takliflar o‘rganildi. Ushbu maqolani yozish jarayonida turli xil me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili o‘tkazilgan va tahlil qilingan usuldan keng foydalanilgan. Mavzuning normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirilgan qismlari keltirildi va tushuntirildi. Bundan tashqari, tizimli tarixiylik metodidan keng foydalanilgan tarixiy rivojlanish bosqichlar yoritib berilgan.

### NATIJA

O‘zbekistonda davlat xizmati dastlabki shakllanish bosqichi (1991-2000-yy.) -o‘tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog‘liq birinchi galdagi samarali islohot va istiqbolli o‘zgarishlardan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatini mustahkamlashning ikkinchi bosqichi (2001-2016-yy.) – qonunchilik, iqtisodiyotni rivojlantirish, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni isloh qilishni ta‘minlashda juda katta ahamiyat kasb etgan davr bo‘lib xizmat qildi.

Uchinchi bosqich – esa O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatini institutsional isloh qilishning o‘ziga xos davridir (2017-x.v.)<sup>2</sup>.

X.T. Azizov tadqiqotlaridan kelib chiqib, bunga qo‘shimcha ravishda davlat xizmatining asosiy qismi bo‘lgan - davlat fuqarolik xizmatining mamlakatimizdagi taraqqiyot davrini ikkita katta, asosiy davrga bo‘lib o‘rganish taklif etiladi. Sababi, *birinchidan*, davlat xizmatini yaxlit tizim sifatida ushbu bosqichga qo‘shadigan bo‘lsak, davlat xizmatining asosiy qismi bo‘lgan davlat fuqarolik xizmati va davlating masus xizmatidagi o‘zgarishlar qo‘shilib ketib, ko‘plab tushunmovchiliklarga sabab bo‘ladi. *Ikkinchidan*, davlat fuqarolik xizmatidagi kadrlar siyosatiga oid asosiy masalaga alohida e‘tibor qaratishdek muhim, dolzarb masalani yoritgan bo‘lamiz.

<sup>1</sup> Raximov D.G’ Davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilanta‘minlaning tashkiliy- huquqiy asoslarini takomillashtirish phd ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan magistrlik dissertatsiyasi 16-17-b.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси давлат фуқаролик хизматини такомиллаштириш масалалари [Матн]: монография / X.Азизов [ва бошқ.] – Тошкент: Shafolat Nur Fayz, 2020. – Б. 13-22.

**Birinchi bosqich.** Davlat fuqarolik xizmatida institutsional o‘zgarishlarning amalga oshirilishi davri (1991-2016-yy.). Bu bosqichda davlat fuqarolik xizmatiga oid bir qancha qonun loyihalari ishlab chiqilgan bo‘lsada, qabul qilinmadi. Sohada zamon ruhiga mos tub islohotlar amalga oshirilmadi. Bu omil, ushbu bosqichda professional davlat xizmatiga o‘tilmasdan, davlat fuqarolik xizmati, milliy davlat boshqaruvida kadrlar siyosatida amalga oshirilgan bir qancha islohotlarni izohlab beradi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi barcha sohalar kabi davlat xizmatining ham asosiy qoidalarini belgilab berdi. Konstitutsiyaga ko‘ra, birinchidan, davlat hokimiyatining qonunchilik, ijro va sud tarmoqlariga bo‘linishi va har bir tarmoqni shakllantirish tartib-taomillari belgilab qo‘yildi, ikkinchidan, yuqori darajadagi davlat xizmatchilarini lavozimga tayinlash va ozod etish tartib-taomillari, bunda Prezident va Parlament vakolatlari chegarasi, uchinchidan, asosan davlat fuqarolik xizmatini nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasi faoliyatining maqomi, vakolatlari va uning tarkibini shakllantirish masalalari, to‘rtinchidan, mahalliy davlat hokimiyatining maqomi, vakolatlari va uning rahbari sifatida hokimlarni lavozimga tayinlash va ozod etish tartiblari belgilandi. Shu bilan birga, Konstitutsiyada barcha fuqarolarning teng huquqligi, ularning davlat boshqaruvida ishtirok etish, mehnat qilish va istagan kasbni tanlash huquqlari belgilanib, bu qoidalar fuqarolarning davlat fuqarolik xizmatiga kirishida teng imkoniyatga egaligini belgilab berdi<sup>3</sup>.

Mahalliy ijro hokimiyatining fundamental asoslari ham alohida shakllanib bordi. 1993-yil 2-sentabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, viloyat, tuman, shahar hokimlari, ularning o‘rinbosarlari va hokimlik strukturasi tuzilmalarining rahbar xodimlarini lavozimga tayinlash va ozod etish tartiblari belgilandi<sup>4</sup>. Vazirlar Mahkamasining 2016-yildagi qaroriga binoan, hokimliklar boshqaruv apparatlari to‘g‘risidagi alohida nizomlar tasdiqlandi<sup>5</sup>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 22 dekabrda PQ-2691-sonli qarori bilan esa hokimliklar boshqaruv apparatining namunaviy tuzilmasi va xodimlarining cheklangan soni belgilandi<sup>6</sup>. Bunday aniq belgilangan qoidalarning yaratilishi har bitta hokimliklarni mahalliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda toifalarga ajratish orqali ushbu hokimliklardagi davlat xizmatchilarining sonini belgilash imkoniyatini yaratib berdi.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021. – 76 б.

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги 913-ХП-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й., 9-сон, 320-модда.

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Вилоятлар, шаҳарлар ва туманлар ҳокимликлари бошқарув аппаратлари тўғрисидаги намунавий низомларни тасдиқлаш ҳақида”ги 123-сон қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 17-сон, 177-модда.

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маҳаллий ижроия ҳокимияти органлари фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги ПҚ-2691-сон қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.04.2022 й., 06/22/95/0267-сон.

Kadrlar tayyorlashning milliy sifatlariga xos tizimi shakllantirildi. Davlat fuqarolik xizmati haqida fikr yuritar ekanmiz, bu borada ta'lim tizimining o'rini alohida e'tirof etishimiz o'rinlidir. Sababi, davlat xizmati uchun malakali kadrlar tayyorlash ta'lim tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Aynan, mustaqillik yillarida ko'plab oliy o'quv yurtlarining ochilishi buning yaqqol isboti bo'ldi. Xususan, ularning soni 1993-yilga kelib 46 taga yetkazildi. 1992 yil 2 iyulda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun<sup>7</sup> qabul qilingan bo'lsa, 1997 yil avgustda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"<sup>8</sup> qabul qilindi. Ushbu qonunlarning qabul qilinishi davlat fuqarolik xizmatining huquqiy asoslarini mustahkam belgilab berdi.

Xorijiy mamlakatlar tajriba va yutuqlaridan unumli foydalangan holda davlat boshqaruvi va rahbar kadrlarni tayyorlash tizimi yaratildi. 1995-yil 19-apreldagi PF-1097-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishui akademiyasi tashkil etildi. Ushbu akademiya O'zbekiston Respublikasi hokimiyat hamda boshqaruv organlarining rahbar xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash, shuningdek, kadrlar siyosati sohasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar bo'yicha bosh, tayanch ta'lim muassasasi bo'lib xizmat qiladigan bo'ldi<sup>9</sup>.

2012-yil 10-apreldagi 4435-sonli O'zbekiston Respublikasi Farmoniga binoan, Akademiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qilib qaytadan tashkil etildi. Akademiya 1995-2016-yillar davomida 2676 nafar magistratura bitiruvchilari ushbu oliygo'hnini muvaffaqiyatli tamomladilar. Siyosatshunos olim M.Atamuratov Davlat boshqaruvi akademiyasi magistraturasini muvaffaqiyat bilan bitirgan tinglovchilarning 45 foizi bir daraja, 8 foizi esa ikki va undan ortiq darajada karyerasining o'sganligini alohida ta'kidlaydi<sup>10</sup>.

## MUNOZARA

Davlat fuqarolik xizmatining zamonaviy va xorijiy standartlar asosida rivojlanish bosqichi 2017-yildan bugungi kunga qadar amalga oshirilgan ishlar va amaldagi rejalar bosqichidir. Davlat xizmatini rivojlantirish bo'yicha tamal toshi qo'yilganidan 2016-yilga qadar davlat boshqaruvi, davlat organlariga oid milliy qonunchilik tizimi tashkil etilib, uni takomillashtirish yuzasidan amaliy ishlar olib borildi.

Ammo, davlat xizmatining jonli subyekti sanalmish davlat xizmatchilarini saralab olish,

<sup>7</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги 636-ХП-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 9-сон, 342-модда; 1993 й., 6-сон, 268-модда.

<sup>8</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги 464-І-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 9-сон, 225-модда.

<sup>9</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузурида Давлат ва жамият қурилиши академиясини ташкил этиш тўғрисида" ПФ-1097-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 й., 5-сон, 82-модда

<sup>10</sup> Атамуратов М.У. Ўзбекистонда раҳбар ва бошқарув кадрлари тизимининг модернизациялаш жараёни: с.ф.ф.д. ... дисс. – Т. 2018. – Б. 84.

ularni tayyorlash va malakasini oshirishga yetarlicha e'tibor qaratilmadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ushbu dolzarb masalaga o'zining prezidentlikka nomzodlik saylovoldi dasturida e'tibor qaratgan edi. 2016-yil 19-oktyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VII syezdida qilgan ma'ruzasida "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatchilariga yuksak talablar qo'yishdan oldin ularning huquqlarini kafolatlash va himoya tizimi bilan mustahkamlash darkor. Masalaning o'ta dolzarbligini e'tiborga olib, davlat xizmati bo'yicha qonun qabul qilish vaqti keldi"<sup>11</sup> deya ta'kidlagan edi.. Ushbu yuqoridagi fikrlar davlat xizmati sohasini yetuk va zamonaviy fikrlaydigan, ilg'or qisqa qilib aytganda eng munosib kadrlarni tayyorlashning zaruriy tizimini yaratish uchun asos bo'ldi.

2022-yil 28-yanvarda "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" tasdiqlanib, unda davlat fuqarolik xizmatini zamonaviylashtirish alohida maqsad sifatida qayd etildi<sup>12</sup>. Aynan ushbu strategiyada davlat xizmatiga e'tibor qaratilganligi davlat xizmatinig dolzarb ekanligini isbotlaydi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining 81-maqsadi esa "Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish" sifatida belgilandi<sup>13</sup>.

Ushbu bosqichda boshqaruv kadrlarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimi yanada takomillashtirildi. 2017-yil 8-avgustda PF-5139-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Davlat boshqaruvi akademiyasi faoliyati takomillashtirildi. Ushbu farmonga ko'ra, Davlat boshqaruvi akademiyasining asosiy maqsad va ustuvor vazifalari belgilab berildi.

Davlat kadrlar siyosatini amalga oshirish mexanizmlarini qo'llash uchun yagona davlat organi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 3-oktyabrdagi PF-5843-son Farmoni bilan davlat xizmati tizimida alohida davlat fuqarolik xizmati instituti joriy etilib, bu soha uchun mas'ul bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi<sup>14</sup>. Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan kadrlarni davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilishda, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilarining xizmatini baholashda juda samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

<sup>11</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 1-жилд, 2017. – Б. 58.

<sup>12</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.

<sup>13</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон – 2030 стратегияси тўғрисида" ПФ-158-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон.

<sup>14</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсатини ва давлат фуқаролик хизмати тизimini тубдан такомиллаштиришга оид биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-5843-сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.10.2019 й., 06/19/5843/3900-сон.

Davlat xizmatiga oid alohida qonun qabul qilindi. 2022-yil 8-avgustda “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning qabul qilinishi davlat xizmatida muhim qadam bo‘lib xizmat qildi. Professor O.T. Xusanov ta’kidlaganidek, qonunning qabul qilinishi davlat fuqarolik xizmatchilarining moddiy manfaatdorlik darajasini oshirib, sohaga qiziqishini kuchaytirib, jamiyatda va davlat xizmatchilari orasida korrupsiyaning sezilarli darajada kamayishiga olib keladi<sup>15</sup>.

2023-yil 30-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasi davlat xizmati sohasida yana bir muhim qadam bo‘lib xizmat qildi. Konstitutsiyaning 37-moddasida davlat fuqarolik xizmatchilarining xizmatga qabul qilinishidagi tengligi to‘g‘risida alohida modda kiritilgani buning yaqqol isbotidir<sup>16</sup>.

### **XULOSA**

Shunday qilib, 2016-yilgacha davlat boshqaruvi umuman, davlat xizmati sohasi islohotlar asnosida sezilarli darajada takomillashtirib kelingan bo‘lsa, 2017-yildan davlat kadrlar siyosatiga alohida urg‘u berilib, qonuniy tus berilganligi Konstitutsiya va Qonunlarda o‘z aksini topdi. Umuman olganda davlat xizmatini alohida kasbga aylantirish uchun bugungi kunda tizimli-strategik rejalar amalga oshirilmoqda. Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda davlat xizmatini tasniflash barcha davlat xizmatchilarini emas, balki faqat davlat fuqarolik xizmatchilarini qamrab olayotganligi va davlatning maxsus xizmati uchun alohida qonunlar, shuningdek, qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlayotgani boisdan “Davlat xizmati tizimi to‘g‘risida”gi Qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish taklif etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tibbiyot xodimlari va o‘qituvchilar uchun alohida moddalar qabul qilinganligini inobatga olib ushbu soha xizmatchilarini ham davlat xizmatiga kiritish va ularni ijtimoiy-huquqiy himoyasining kafolatlari tizimini ishlab chiqish taklif etiladi.

### **REFERENCES**

1. Raximov D.G’ Davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilanta’minlahning tashkiliy- huquqiy asoslarini takomillashtirish phd ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan magistrlik disseratsiyasi 16-17-b.

<sup>15</sup> Xusanov O.T. Ўзбекистонда давлат фуқаролик хизмати ҳуқуқий асосларининг ривожланиш истиқболлари. // “Социология ва ҳуқук” журнали. – № 1, 2022. – Б. 59-64.

<sup>16</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (янги таҳрири) // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси давлат фуқаролик хизматини такомиллаштириш масалалари [Матн]: монография / Х.Азизов [ва бошқ.] – Тошкент: Shafoat Nur Fayz, 2020. – Б. 13-22.
3. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги 913-ХП-сон Қонуни Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й., 9-сон, 320-модда
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Вилоятлар, шаҳарлар ва туманлар ҳокимликлари бошқарув аппаратлари тўғрисидаги намунавий низомларни тасдиқлаш ҳақида”ги 123-сон қарори Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 17-сон, 177-модда.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги 636-ХП-сон Қонуни Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 9-сон, 342-модда; 1993 й., 6-сон, 268-модда.
7. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги 464-І-сон Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 9-сон, 225-модда.
8. Хусанов О.Т. Ўзбекистонда давлат фуқаролик хизмати ҳуқуқий асосларининг ривожланиш истикболлари. “Социология ва ҳуқуқ” журнали. – № 1, 2022. – Б. 59-64.
9. Атамуратов М.У.Ўзбекистонда раҳбар ва бошқарув кадрлари тизимининг модернизациялаш жараёни: с.ф.ф.д.дисс. – Т. 2018. – Б. 84.
10. Хусанов О.Т. Ўзбекистонда давлат фуқаролик хизмати ҳуқуқий асосларининг ривожланиш истикболлари. “Социология ва ҳуқуқ” журнали. – № 1, 2022. – Б. 59-64.